


**NAVOIY VILOYATINING
CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI**

(2019-yil yanvar-noyabr*)

Navoiy viloyati bo`yicha joriy yilning yanvar-noyabr oylarida chakana savdo tovar aylanmasi 5 705,2 mlrd. so`mni tashkil etib, o`tgan yilning shu davriga nisbatan 7,2 % ga o`sdi. Shu jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi 698,5 mlrd. so`mni (o'sish sur'ati 156,3 %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarining tovar aylanmasi 5 006,7 mlrd. so`mni (o'sish sur'ati 102,7 %), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 819,2 mlrd. so`mni (o`tgan yilning shu davriga nisbatan 10,9 % ga kamaygan) tashkil etdi.

Chakana savdo tovar aylanmasi hajmiga ijobiy ta'sir ko'rsatgan viloyat hududlari qatoriga Navoiy shahri, Karmana tumani, Qiziltepa tumani, Xatirchi tumani va Zarafshon shahrini misol keltirishimiz mumkin.

**Hududlar kesimida chakana savdo tovar
aylanmasi hajmi, (mlrd. so`m)**



*-dastlabki ma'lumotlar

2018-yilning shu davriga nisbatan viloyatning barcha hududlarida chakana savdo tovar aylanmasining o'sish sur'atlari kuzatilib, nisbatan yuqori o'sish sur'atlari Navoiy shahri, Xatirchi tumani, Karmana tumani, Navbahor tumanlarida qayd etildi. Shuningdek, eng yuqori ko'rsatkich viloyatda Navoiy shahriga va aksincha eng past ko'rsatkich Uchquduq tumaniga to'g'ri kelmoqda.

Chakana savdo tovar aylanmasining o'sish sur'atlari



Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining tovar aylanmasi hajmi o'tgan yilning mos davriga nisbatan 56,3 % ga o'sdi va 698,5 mlrd. so'mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining 12,2 % ulushiga to'g'ri keladi.

Shuningdek, quyidagi jadvaldan ko'rinish turibdiki yirik korxonalarining tovar aylanmasi tahlil qilganida shahar va tumanlar orasida eng yuqori chakana savdo tovar aylanmasiga ega bo'lgan hudud bu Navoiy shahri bo'lib, uning tovar aylanmasi 1 932,2 mlrd. so'm (o'tgan yilning shu davriga nisbatan 116,8 %)ni tashkil etadi.


**Yirik korxonalar, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik
sub'ektlarining chakana savdo
tovar aylanmasidagi hajmi**

	Jami (mlrd. so'm)	<i>Jamidan:</i>			
		Yirik korxonalar (mlrd. so'm)	Jamiga nisbatan ulushi, %	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlari (mlrd. so'm)	Jamiga nisbatan ulushi, %
Navoiy viloyati	5 705,2	698,5	12,2	5 006,7	87,8
Navoiy sh.	1 932,2	661,9	34,3	1 270,3	65,7
Zarafshon sh.	546,7	8,9	1,6	537,8	98,4
<i>tumanlar:</i>					
Karmana	872,3	2,2	0,2	870,1	99,8
Konimex	153,2	0,7	0,5	152,5	99,5
Qiziltepa	686,9	7,6	1,1	679,3	98,9
Navbahor	338,0	0,8	0,2	337,2	99,8
Nurota	224,0	2,4	1,1	221,6	98,9
Tomdi	41,9	0,2	0,5	41,7	99,5
Uchquduq	264,0	0,7	0,3	263,3	99,7
Xatirchi	646,0	13,1	2,0	632,9	98,0

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblarga ko'ra 5 006,7 mlrd. so'mni tashkil etib, 2018-yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan 2,7 % ga o'sdi. Viloyat miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 87,8 % ga teng kelmoqda.

Shuningdek, chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarining 2018-yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan o'sish sur'ati yuqori bo'lgan hududlar ichida Karmana va Navbahor tumanlarini misol keltirishimiz mumkin.

**Chakana savdo tovar aylanmasida yirik korxonalar,
kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarining ulushi, %**



Joriy yilning yanvar-noyabr oylari tahliliy natijalariga qaraganda, chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarining ulushi 87,8 % ni tashkil etib, mazkur ko'rsatkich bo'yicha shahar va tumanlar orasida Karmana (99,8%), Navbahor (99,8%), Uchquduq (99,7%), Konimex (99,5%) tumanlari yetakchilik qilmoqda.


Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarning ulushi 12,2 % ni tashkil etib, eng katta ulush asosan Navoiy shahrida (34,3 %), Xatirchi tumanida (2,0 %) va Zarafshon shahrida kuzatilgan.

Quyidagi diagrammadan ko'rinish turibdiki, mulkchilik shakli bo'yicha chakana savdo tovar aylanmasi hajmining asosiy qismi nodavlat mulki hisoblanib, 2019-yil yanvar-noyabr oylarida 5 670,9 mlrd. so'mni tashkil etdi. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan 99,8 foizdan 99,4 foizga kamaydi.

**Mulkchilik shakli bo'yicha
chakana savdo tovar aylanmasi hajmi, (mlrd. so'm)**

	Jami	Nodavlat mulki	Davlat mulki
Navoiy viloyati	5 705,2	5 670,9	34,3
Navoiy sh.	1 932,2	1898,0	34,2
Zarafshon sh.	546,7	546,7	-
<i>tumanlar:</i>			
Karmana	872,3	872,2	0,1
Konimex	153,2	153,2	-
Qiziltepa	686,9	686,9	-
Navbahor	338,0	338,0	-
Nurota	224,0	224,0	-
Tomdi	41,9	41,9	-
Uchquduq	264,0	264,0	-
Xatirchi	646,0	646,0	-

**Mulkchilik shakli bo'yicha
chakana savdo tovar aylanmasi ulushi, %**



Xuddi shuningdek, mulkchilik shakli bo'yicha chakana savdo tovar aylanmasi hajmidagi davlat mulki 2019-yil yanvar-noyabr oylarida 34,3 mld. so'mni tashkil etdi. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan 0,2 foizdan 0,6 foizga ko'paydi.

Chakana savdo tovar aylanmasi hajmida katta ulushga ega bo'lgan Navoiy shahri (33,9 foiz), Karmana tumani (15,3 foiz), Qiziltepa tumani (12,1 foiz), Xatirchi tumani (11,3 foiz), va Zarafshon shahri (9,6 foiz) chakana savdo tovar aylanmasining o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

Chakana savdo tovar aylanmasida viloyat hududlarining ulushi, %



Jumladan, 2019-yilning yanvar-noyabr oylari mobaynida chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida ovqatlanish tashkilotlarining savdo aylanmasi 2,4 % ni tashkil etib, 135,2 mlrd. soʻmga yetdi yoki oʻtgan yilning mos davriga nisbatan 0,5 % oʼsishga erishildi. Bunda jami savdo aylanmasining 92,1 % ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subʼektlari ulushiga toʼgʼri kelmoqda.

**Viloyatda yirik umumiyoq ovqatlanish korxonalarining
savdo aylanmasi hajmi**


	Jami (mlrd. soʻm)	Oʼtgan yilning shu davriga nisbatan, %	Yirik korxonalar		
			Hajmi (mlrd. soʻm)	Oʼtgan yilning shu davriga nisbatan, %	Jamiga nisbatan ulushi, %
Navoiy viloyati	135,2	100,5	10,7	77,9	7,9
Navoiy sh.	52,6	97,9	10,6	79,5	20,1
Zarafshon sh.	16,4	103,5	-	-	-
<i>tumanlar:</i>					
Karmana	24,8	103,1	0,1	95,7	0,5
Konimex	2,8	101,9	-	-	-
Qiziltepa	11,7	102,0	-	-	-
Navbahor	4,5	101,3	-	-	-
Nurota	3,3	94,9	-	-	-
Tomdi	1,4	102,1	-	-	-
Uchquduq	5,4	102,4	-	-	-
Xatirchi	12,3	102,0	-	-	-

Shuningdek, ovqatlanish tashkilotlarining savdo aylanmasi tarkibida yirik korxonalarning savdo aylanmasi 10,7 mlrd. soʻmni (oʻtgan yilning shu davriga nisbatan 22,1 % ga kamaygan), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subʼektlarining savdo aylanmasi 124,5 mlrd. soʻmni (oʻtgan yilning shu davriga nisbatan 3,1 % ga koʻpaygan) tashkil etdi.

**Viloyatda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik
umumiy ovqatlanish subʼektlarining savdo aylanmasi hajmi**

	Jami (mlrd.soʻm)	Oʼtgan yilning shu davriga nisbatan, %	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subʼektlari		
			Hajmi (mlrd. soʻm)	Oʼtgan yilning shu davriga nisbatan, %	Jamiga nisbatan ulushi, %
Navoiy viloyati	135,2	100,5	124,5	103,1	92,1
Navoiy sh.	52,6	97,9	42,0	103,9	79,9
Zarafshon sh.	16,4	103,5	16,4	103,5	100,0
<i>tumanlar:</i>					
Karmana	24,8	103,1	24,7	103,1	99,5
Konimex	2,8	101,9	2,8	101,9	100,0
Qiziltepa	11,7	102,0	11,7	102,4	100,0
Navbahor	4,5	101,3	4,5	102,0	100,0
Nurota	3,3	94,9	3,3	101,6	100,0
Tomdi	1,4	102,1	1,4	102,1	100,0
Uchquduq	5,4	102,4	5,4	102,4	100,0
Xatirchi	12,3	102,0	12,3	102,0	100,0

**Hududlar kesimida ovqatlanish tashkilotlari
savdo aylanmasi hajmi (*mlrd. so'm*) va o'sish sur'atlari**




**Mulkchilik shakli bo'yicha ovqatlanish korxonalarining
savdo aylanmasi hajmi, (*mlrd. so'm*)**

	Jami	Nodavlat mulki	Davlat mulki
Navoiy viloyati	135,2	124,7	10,5
Navoiy sh.	52,6	42,2	10,4
Zarafshon sh.	16,4	16,4	-
<i>tumanlar:</i>			
Karmana	24,8	24,7	0,1
Konimex	2,8	2,8	-
Qiziltepa	11,7	11,7	-
Navbahor	4,5	4,5	-
Nurota	3,3	3,3	-
Tomdi	1,4	1,4	-
Uchquduq	5,4	5,4	-
Xatirchi	12,3	12,3	-

Quyidagi diagrammadan ko'rinib turibdiki, mulkchilik shakli bo'yicha ovqatlanish korxonalari savdo aylanmasi hajmining asosiy qismi nodavlat mulki hisoblanib, 2019-yil yanvar-noyabr oylarida 124,7 mlrd. so'mni tashkil etdi. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan 96,5 foizdan 92,2 foizga kamaydi.

Mulkchilik shakli bo'yicha ovqatlanish korxonalari savdo aylanmasining ulushi, %




Xuddi shuningdek, mulkchilik shakli bo'yicha ovqatlanish korxonalari savdo aylanmasi hajmidagi davlat mulki 2019-yil yanvar-noyabr oylarida 10,5 mlrd. so'mni tashkil etdi. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan 3,5 foizdan 7,8 foizga ko'paydi.

NAVOIY VILOYATINING ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI

(2019-yil yanvar-noyabr*)

2019-yil yanvar-noyabr oylarida viloyat bo'yicha ulgurji savdo tovar aylanmasi 1 744,1 mlrd. so'mni tashkil qildi va 2018-yilning shu davriga nisbatan 13,8 foizga kamaydi. Ulgurji savdo tovar aylanmasida eng yuqori hajm yirik korxonalarining tovar aylanmasi hajmiga to'g'ri kelib, mazkur hajm 2019-yil yanvar-noyabr oylari yakunlariga ko'ra 937,9 mlrd. so'mni, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 80,2 % ni tashkil qildi. Ushbu sektorning umumiy ulgurji savdo tovar aylanmasidagi ulushi esa 53,8 % ni tashkil qilmoqda.

Ulgurji savdo tovar aylanmasining tarkibida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlari aylanmasining ulushi esa 46,2 % ni tashkil etdi.



Quyidagi jadval ma'lumotlari tahlili asosida viloyatda faqatgina Navoiy shahrida va Xatirchi tumanida yirik korxonalar tomonidan ulgurji savdo tovar aylanmasi mavjud bo'lib, qolgan 8 ta hududda asosan ulgurji savdo tovar aylanmasi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlari tomonidan amalga oshirilgan.

*-dastlabki ma'lumotlar

Shuningdek, shahar va tumanlar orasida eng yuqori ulgurji savdo tovar aylanmasiga ega bo'lgan hudud bu Navoiy shahri bo'lib, uning tovar aylanmasi 1 199,8 mlrd. so'm (o'tgan yilning shu davriga nisbatan 83,0 %)ni tashkil etadi.

**Ulgurji savdo tovar aylanmasida yirik korxonalar,
kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarining hajmi**

	Jami (mlrd. so'm)	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlari (mlrd. so'm)	Jamiga nisbatan ulushi, %	Yirik korxonalar (mlrd. so'm)	Jamiga nisbatan ulushi, %
--	-------------------------	--	------------------------------------	-------------------------------------	------------------------------------

Navoiy viloyati	1 744,1	806,2	46,2	937,9	53,8
Navoiy sh.	1 199,8	262,9	21,9	936,9	78,1
Zarafshon sh.	43,3	43,3	100,0	-	-


tumanlar:

Karmana	293,8	293,8	100,0	-	-
Konimex	8,6	8,6	100,0	-	-
Qiziltepa	55,6	55,6	100,0	-	-
Navbahor	61,4	61,4	100,0	-	-
Nurota	6,4	6,4	100,0	-	-
Tomdi	1,7	1,7	100,0	-	-
Uchquduq	10,9	10,9	100,0	-	-
Xatirchi	62,6	61,6	98,4	1,0	1,6

Quyidagi ma'lumotlardan ko'rinish turibdiki, mulkchilik shakli bo'yicha ulgurji savdo tovar aylanmasi hajmining asosiy qismi nodavlat mulki hisoblanib, 2019-yil yanvar-noyabr oylarida 1 743,2 mlrd. so'mni tashkil etdi. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan 99,953 foizdan 99,948 foizga kamaydi.

Xuddi shuningdek, mulkchilik shakli bo'yicha ulgurji savdo tovar aylanmasi hajmidagi davlat mulki 2019-yil yanvar-noyabr oylarida 0,9 mlrd. so'mni tashkil etdi. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan 0,047 foizdan 0,052 foizga ko'paydi.

**Mulkchilik shakli bo'yicha
ulgurji savdo tovar aylanmasi ulushi, %**



**Hududlar kesimida mulkchilik shakli bo'yicha
ulgurji savdo tovar aylanmasi hajmi, (mlrd. so'm)**


	Jami	Nodavlat mulki	Davlat mulki
Navoiy viloyati	1 744,1	1 743,2	0,9
Navoiy sh.	1 199,8	1 199,8	-
Zarafshon sh.	43,3	43,3	-

tumanlar:

Karmana	293,8	292,9	0,9
Konimex	8,6	8,6	-
Qiziltepa	55,6	55,6	-
Navbahor	61,4	61,4	-

Nurota	6,4	6,4	-
Tomdi	1,7	1,7	-
Uchquduq	10,9	10,9	-
Xatirchi	62,6	62,6	-

**Ulgurji savdo tovar aylanmasida
viloyat hududlarining ulushi**



Tahlil natijalariga ko'ra Navoiy viloyatida ulgurji savdo tovar aylanmasining asosini Navoiy shahridagi ulgurji savdo tovar aylanmasi tashkil qiladi va xuddi shuningdek, ulgurji savdo tovar aylanmasi hajmida katta ulushga ega bo'lgan Navoiy shahri (68,8 foiz), Karmana tumani (16,8 foiz) va Xatirchi tumani (3,6 foiz) ulgurji savdo tovar aylanmasining o'sishiga ijobji ta'sir ko'rsatdi.

**Tashqi iqtisodiy faoliyat va
savdo statistikasi bo'limi
Tel.: (0871) 230-84-36**